

TIBBIY XIZMAT NATIJASIDA KELIB CHIQQAN INSON HAYOTI VA SOG'LIG'I UCHUN XAVFLI BO'LGAN JINOYATNING TUSHUNCHASI

Tashmatov Ulugbek Nuritdin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti, Mustaqil izlanuvchi (PHD)

12.00.09 – Jinoyat protsessi, Kriminalistika, tezkor – qidiruv huquq va sud ekspertizasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21524356>

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan jinoyatning tushunchasi, uning jinoiy huquqiy va lug'aviy ta'rifi, olimlar fikri va nazariy yondashuv asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan jinoyatning tushunchasi, kasb vazifalari, majburiyat va burch tushunchalari.

Аннотация: В тезисе анализируется понятие преступления, опасного для жизни и здоровья человека, причиненного медицинскими услугами, его уголовно-правовое и словарное определение, основанное на мнении ученых и теоретическом подходе.

Ключевые слова: понятие преступления, причиненного медицинской помощью, понятия профессиональных обязанностей, обязанности и долга.

Abstract: In the thesis analyzes the concept of a crime dangerous to human life and health caused by medical services, its criminal law and dictionary definition, based on the opinion of scientists and a theoretical approach.

Key words: the concept of a crime caused by medical care, the concepts of professional duties, obligations and debts.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasiga ko'ra, "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralari ko'radi" deb belgilangan"[1].

Tibbiy yordam sohasidagi jinoyatlar barcha kasbiy huquqbuzarliklar ichida eng xavflisi bo'lib hisoblanadi, chunki tibbiyot xodimlarining faoliyati inson hayoti va sog'lig'i bilan bevosita bog'liqdir. Bunda, sababiy bog'lanish va oqibat munosabatlarini aniqlash juda muhim, chunki javobgarlik faqat tibbiyot xodimining baxtsiz oqibatlarga olib kelgan noqonuniy xatti-harakatlari natijasida yuzaga keladi.

Tibbiyot xodimlarining vijdotsiz xatti-harakatlari (yetarli diagnostikaning yo'qligi, noto'g'ri tashxis qo'yish, davolanishni kechiktirish va h.k.) kabi subyektiv sabablar ko'pincha yosh mutaxassislarda tajriba va bilimlarning yetishmasligi va aksincha, tajribaliroq xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirib yuborish bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Biroq, hayot va sog'liqqa zarar yetkazilishi bilan tugallangan holatlar har doim ham shifokorlar tomonidan o'z kasbiy vazifalarini noto'g'ri bajarish bilan bog'liq emas. Bunda, shifokorlarning ular tomonidan bajariladigan harakatlariga munosabatini aniqlash katta ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan tibbiy yordamni noto'g'ri ko'rsatish yoki o'z kasbini lozim darajada bajarmaslik uchun javobgarlik muammosi tobora dolzarb bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan "Kasb bilan bog'liq jinoyatlar" deganda, xodimlarning kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmasligi yoki lozim

darajada bajarmasligi tufayli ehtiyotsizlik orqasida inson hayoti yoki sog'lig'iga shikast yetkazgan ijtimoiy xavfli qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik) tushuniladi [2. 11].

O'zbekiston Respublikasi JK 276⁹-moddasi 5-qismi va 116-moddasida kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan, bo'lib, amaldagi jinoyat qonunchiligi bo'yicha turli kasb egalarining javobgarligiga doir bir necha yangi maxsus normalar emas, balki umumiy normalar nazarda tutilgan.

Mazkur jinoyatga oid asosiy tushunchalarga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbek tilining izohli lug'atida yozilishicha, "kasb – ish faoliyatning ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar". "Vazifa – amalga oshirilishi, hal qilinishi lozim bo'lgan, ko'zda tutilgan maqsad, maqsadli ish". "Tibbiyot– kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarni oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmui". "Xizmat qilmoq– biror tashkilot, muassasa yoki korxonada bajariladigan ish, vazifa, lavozim, shunday joyda ishlash" [3. 672] .

Yuqoridagilarga asosan "Tibbiy xizmat" deganda, tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi, kishilar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, kasalliklarni oldini olish, davolashga oid amaliy tadbirlar majmui hisoblanadi.

O'z navbatida burch asosan qoidalardan, axloqiy normalardan kelib chiqadi, majburiyat esa, aksar hollarda shartnoma va bitimlardan kelib chiqadi; burch shaxs tug'ilganidan to umrining oxiriga qadar davom etadi, majburiyat esa, shartnomaning amal qilish davrida bo'ladi; shuningdek, burch davlat va jamiyat tomonidan belgilanib, uning bajarilishi talab etiladi [4. 194].

Qayd etish kerakki, kasb yuzasidan bajariladigan vazifalar mehnat qonunchiligi bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 104-moddasiga ko'ra, xodimning mehnat vazifasi deganda muayyan kasb, mutaxassislik, malaka yoxud lavozim bo'yicha ish, shuningdek xodimga topshiriladigan ishning aniq turi tushuniladi [5.].

Yuqoridagilarni tatbiq etadigan bo'lsak, tibbiy kasbiy vazifa va majburiyat buzilgan taqdirda jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin. Chunki, burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch bajarilmaganida, ishning holatlariga ko'ra, jinoyat qonunining tegishli moddalariga ko'ra jinoiy javobgarlik yuzaga kelishi mumkin.

Shuningdek, kasbiy vazifa va majburiyat tushunchalarini ham o'zaro farqlash lozim. Ushbu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yuzaga kelish asosi (manbai)ga ko'ra farqlanadi. Kasb vazifasi shaxsning aniq kasbiy faoliyati doirasida mehnat shartnomasi asosida kelib chiqib, mazkur vazifalarni bajarish yoxud rioya etishda kasbiy majburiyat vujudga keladi.

M.X.Rustambayevning yozishicha, "Kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaganlik – shaxsning o'z kasb majburiyatlari doirasiga kiruvchi harakatlarni qilishi lozim va mumkin bo'lgan hollardagi harakatsizligidir. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaganlik, deganda shaxsning o'z kasb majburiyatlari doirasidagi harakatlarini uning ishi, kasbiy faoliyati talab etganidek bajarmaganligi tushuniladi"[6. 127].

E.O.Turg'unboyevning ta'kidlashicha, "Kasb yuzasidan o'z vazifalarini bajarmaslik – bu shaxsning o'z kasb majburiyatlari doirasiga kiradigan amallarni bajarishi lozim va shart bo'lgan holatlarda bajarmasligidir. Kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik

shaxsning bajarishi shart bo'lgan majburiyatlarni rasmiy ijro etib, puxta yoki to'liq bajarmaganligi bilan izohlanadi" [7. 113].

Yuridik adabiyotlarda mazkur jinoyat tushunchasini yoritishda asosan kasalga yordam ko'rsatmaslik, ya'ni qonun yoki maxsus qoidalarga muvofiq kasalga yordam ko'rsatishi shart bo'lgan shaxsning uzrli sababsiz shunday yordam ko'rsatmaganligi badanga o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazilishiga sabab bo'lgandagi holat izohlangan [8. 239].

Adabiyotlarda "kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik" tushunchasiga Yu.D.Sergeyev va S.V.Yerofeyevning monografiyasida ayniqsa to'liq va aniq ta'rif berilgan. Ular aynan tibbiyot sohasida kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik deganda, tibbiyot xodimi kasb yuzasidan o'z vazifalarini buzib, ayrim fuqarolar sog'lig'iga jiddiy ziyon yetkazgan (yoki amalda yetkazishi mumkin bo'lgan) yoki ularning hayotiga xavf tug'dirgan qilmishni qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etishini tushunadilar [9. 258].

Sog'liqni saqlash sohasida kasb yuzasidan o'z vazifalarini lozim darajada bajarmaslik tushunchasiga berilgan mazkur ta'rif ushbu jinoyat tarkibining mazmuniga va yuridik adabiyotlarda berilgan ta'riflarga ayniqsa yaqindir. Yuqorida keltirilgan ta'rifga ko'ra, mualliflar mazkur jinoyatlar qasddan ham, ehtiyotsizlik orqasida ham sodir etilishi mumkin, deb hisoblaydilar. Tibbiyot xodimlari bemorlarning hayoti va sog'lig'iga qarshi sodir etadigan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha tergov va sud amaliyoti esa bunday qilmishlar ehtiyotsizlik orqasida sodir etilishini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Tibbiy xizmat natijasida kelib chiqqan inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan jinoyatning" deganda, "tibbiyot xodimining unga kasb va xizmat majburiyati yuzasidan o'z vazifalarini bajarayotganida sovuqqonlik, beparvolik, ehtiyotsizlik, yoki vijdonsizlarcha munosabati bilan, basharti bajarishi shart bo'lgan vazifalarini bajarmasligi, yoxud rasmiy talablar, qonun-qoidalarga to'liq yoki qisman muvofiq kelmaydigan harakatlari yoki harakatsizligi natijasida jinoyat qonunchiligi bilan muhofaza qilinadigan inson hayoti va sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan oqibatlar keltirib chiqadigan xatti-harakatlar"ni tushunishimiz lozim.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Б.А.Мирзалиев "Тиббиёт соҳасида касб юзасидан ўз вазифаларини лозим даражада бажармаслик билан боғлиқ жиноятларни квалификация қилиш масалалари", магистрлик диссертация иши // 11 бет.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi. J.IV. T-Sh / Mas'ul muharrir A.Madvaliyev.- T.: "O'zbekiston nashriyoti" davlat unitar korxonasi, 2020. – 672 bet.
4. Ўзбекистон Республикасининг Конституциясига шарҳ. Масъул муҳаррир: А.А.Азизхўжаев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 194.
5. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>
6. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси жиноят ҳуқуқи курси. Махсус қисм. 3-том: Шахсга қарши жиноятлар. Тинчлик ва хавфсизликка қарши жиноятлар. Дарслик. – Тошкент: ИLM ZIYO, 2011. – Б. 127
7. Турғунбоев Э.О. Касб юзасидан ўз вазифаларини лозим даражада бажармаслик ва хавф остида қолдириш жиноятининг фарқ қилувчи белгилари. / Ёш олимларнинг илмий мақолалар тўплами. 2010 йил № 1. – Б.113

8. Ўзбекистон Юридик энциклопедияси / Нашр учун масъул Р.А.Мухитдинов ва бошқ.;
масъул муҳаррир: Н.Тойчиев. – Тошкент: Адолат, 2010. – Б. 239;
9. Григорьев М.Ю., Сергеев Ю.Д., Григорьев Ю.И. Медицинские основы деятельности
врача. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2006. 258 ст.